

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

MATEMATIKA VA IQTISOD FAKULTETI

MATEMATIKA VA TABIIY FANLAR KAFEDRASI

**60722500 - GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA VA KADASTR BAKALAVRIAT
TA'LIMI YO'NALISHI UCHUN
“METROLOGIYA VA STANDARTLASHTIRISH ” FANIDAN
AMALIY VA LABARATORYA MASHG`ULOTLARNI
O'TKAZISH UCHUN**

USLUBIY KO'RSATMA



Toshkent-2024

MUNDARIJA

T/r.	Bo‘limlarning nomlanishi	Betlar
	I.Amaliy mashg`ulot mavzusi va tarkibi	
1.	“Metrologiya to‘g‘risida” gi, “Standartlashtirish to‘g‘risida” gi, “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zR qonuni bo‘yicha tushunchalar berish.	
2.	Metrologiya va standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar.	
3	Standart ularning turlari, ishlab chiqish tartiblari, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartib qoidalari. Xalol standartlari.	
4	Mahsulot sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shtrixli kodlash.	
5	Texnik reglamentlarni ishlab chiqishning asosiy vazifalari. Texnik reglamentlarning turlari va ularni ishlab chiqish.	
6	Sertifikatlashtirish sxemalarini o‘rganish.	
7	Xalqaro ISO 9001 seriyasidagi standartlar bo‘yicha ishlarni tashkil etish.	
8	Maxsulot sifati va sifatni boshqarish.	
	II. Labaratorya mashg`ulot mavzusi va tarkibi	
9.	Fizikaviy kattaliklarning sifat va miqdoriy tavsiflari. Fizikaviy kattaliklarning birliklari. Xalqaro birliklar tizimi.	
10.	O‘lchashlarning usullari va turlari.	
11	O‘lchash vositalari va ularning turlari.	
11.	Xatoliklarning turlari, taqsimlanishi va ularning ehtimoliy baholanishi.	
12	Xatolikning ehtimoliy baholanishi.	
13	O‘lchashlar noaniqligi va ularning tiplari.	
12.	O‘lchash natijalarini qayta ishslash	
.	Umumiy qoyidalar	
12.	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	
13.	Ilovalar	

1-amaliy mashg'ulot

“Metrologiya to‘g‘risida” gi, “Standartlashtirish to‘g‘risida” gi, “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zR qonuni bo‘yicha tushunchalar berish.

Metrologiyaning qonuniy asoslari

O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi (1004-XII-sonli)

Qonuni 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan.

O‘zbekiston respublikasining “Metrologiya” to‘g‘risida qonuniga (O’RQ-614-son) o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritilib yangi tahrida 2020 yil 7 aprel qabul qilingan. Ushbu Qonunning to‘la matini quyida keltirilgan.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Metrologiya to‘g‘risida

(yangi tahriri)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

A Ushbu Qonunning maqsadi metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilik

Metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjalardan iboratdir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining metrologiya to‘g‘risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

metrologiyaga oid faoliyat — o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minalash, o‘lchash uslublari va vositalari, shuningdek talab qilinadigan aniqlikka erishish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat;

metrologik kuzatiluvchanlik — o‘lchash natijasining hujjalashtirilgan uzluksiz kalibrlashlar ketma-ketligi orqali etalonga bog‘lash mumkin bo‘lgan xossasi;

metrologik ekspertiza — o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishi bilan bog‘liq metrologik talablar, qoidalar va normalarni qo‘llash to‘g‘riliqi hamda to‘liqligini baholash va tahlil qilish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy ishlar majmui;

sinov vositasi — sinovlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, normalangan texnik tavsiflari bo‘lgan texnik qurilma, modda va (yoki) material;

standart namuna — metrologik attestatsiya natijasida modda (material)ning xossasi yoki tarkibini tavsiflaydigan bitta yoki undan ortiq qiymatlari aniqlangan shu modda (material) namunasi shaklidagi o‘lchash vositasi;

etalon — muayyan kattalik birligining o‘lchamini boshqa o‘lchash vositalariga o‘tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositasi;

o‘lchashlar aniqligining ko‘rsatkichi — o‘lchash uslubiyotining qo‘llanilayotgan normalari va qoidalariga rioya etilganda olingan o‘lchash natijalari aniqligining belgilangan tavsifi;

o‘lchashlarni bajarish uslubiyoti — o‘lchashlarning bajarilishini va ularning natijalari belgilangan aniqlik ko‘rsatkichlari bilan olinishini ta’minlaydigan operatsiyalar va qoidalar majmui;

o‘lchash vositasi — o‘lchashlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatlarga ega bo‘lgan texnika vositasi;

o‘lchash vositalarini kalibrlash — berilgan sharoitlarda o‘lchash vositasi yordamida olingan kattalik qiymati va etalon bilan qayta tiklanadigan tegishli kattalik qiymati o‘rtasidagi nisbatni aniqlash orqali o‘lchash vositasining metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o‘lchash vositalarini qiyoslash — o‘lchash vositalarining belgilab qo‘yilgan metrologik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishi — o‘lchashlarning natijalari qonuniylashtirilgan Birliklarda ifodalangan va o‘lchashlarning aniqlik ko‘rsatkichlari ma’lum ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan holati.

4-modda. Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

O’zbekiston Respublikasida o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash; ishonchsiz o‘lchash natijalarining oldini olish; xolis, ishonchli va solishtiriladigan o‘lchash natijalariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish;

o‘lchash natijalarining milliy va (yoki) xalqaro etalonlargacha metrologik kuzatiluvchanligini ta’minlash;

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishiga va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko‘maklashish.

5-modda. Metrologiyaga oid faoliyat sohasinining asosiy prinsiplari Metrologiyaga oid faoliyat sohasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

metrologiya tekshiruvi va nazorati natijalarining xolisligi;

ilmiy asoslanganlik;

o‘lchash birliklari qo‘llanilishida xalqaro birliklar tizimining ustuvorligi; boshqaruv tizimining yagonaligi;

ma’lumotlarning oshkoraliqi va ochiqligi;

o‘lchashlar yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha milliy va xalqaro talablarning uyg‘unligi.

2-bob. Metrologiyaga oid faoliyat sohasini tartibga solish

6-modda. Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

metrologiyaga oid faoliyatni xalqaro talablar asosida rivojlantirish;

investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda ularni ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiya qilish;

metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash

va ularning malakasini oshirish;
ilg‘or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini
rag‘batlantirish;
noto‘g‘ri o‘lhash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir
tadbirlarni amalga oshirish;
O‘zbekiston Respublikasida o‘lhashlarning yagona birlikda bo‘lishini
ta’minlash tizimi ishlashi va rivojlanishini, uning xalqaro birliklar tizimi va boshqa
mamlakatlarning kattalik birliklari tizimlari bilan uyg‘unlashuvini ta’minlash;
xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining metrologiyaga
oid faoliyat sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

metrologiyaga oid faoliyat sohasida yagona davlat siyosati amalga
oshirilishini ta’minlaydi;

metrologiyaga oid faoliyat sohasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda
ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

o‘z vakolatlari doirasida metrologiyaga oid faoliyat sohasida normativ
huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

metrologiyaga oid faoliyat sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi
organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

kattalik birliklarining nomlari va belgilari, ularni yozish va qo‘llash
qoidalarini, metrologiya tekshiruvi va nazorati tartibini, O‘zbekiston
Respublikasining xalqaro shartnomalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston
Respublikasi hududidan tashqarida o‘tkazilgan o‘lhash vositalarini sinash va
metrologik attestatsiyadan o‘tkazish, qiyoslash, kalibrlash natijalarini O‘zbekiston
Respublikasida e’tirof etish tartibini belgilaydi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati

Metrologiyaga oid faoliyat sohasining davlat tomonidan boshqarilishini
metrologiya bo‘yicha milliy organ — O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va
sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi
deb yuritiladi) amalga oshiradi.

2-Amaliy mashg‘ulot

Metrologiya va standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar.

Hozirgi paytda metrologiya va standartlashtirish bo‘yicha qonun-qoidalar va me’yorlami
yaratish bilan shug‘ullanadigan ko‘pgina xalqaro standartlashtirish tashkilotlari
mavjuddir. Shular

jumlasiga ular ichida eng ko‘p aniq bo‘lgan va tan olingan tashkilotlarga
standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot (ISO), Xalqaro elektrotexnik komissiyasi
(IIC), metrologiya bo‘yicha

qonunlashtiriluvchi Xalqaro tashkilot (MOZM) va Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EEK)
kiradi [4].

Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot 1946-yil 14- oktyabrda Evropa iqtisodiy
komissiyasining tashabbusi bilan tashkil etilgan boiib, bu konferensiyada 25 ta davlat

ishtirok etdi Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning ustaviga bogiiq holda, standartlashtirishni tashkil etishning maqsadi, jahon masshtabida xalqaro almashtirish va o'zaro yordam, shu bilan birgalikda ilmiy, texnik va iqtisodiy faoliyatda hamkorlik qilishni

kengaytirish va osonlashtirish maqsadida standartlashtirishni rivojlantirishdir [4].

Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning asosiy faolligi

xalqaro standartlami yaratish va ulami ko'paytirish, hamda keng

.Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning hujjatlari uch xil ingliz, frantsuz va rus tillarida chop etiladi. Xalqaro standartlashtirishning loyihalarni yaratishda ishchi idoralar, ya'ni texnik qo'mitalar tomonidan amalga oshiriladi[4],

Texnik qo'mitalaming ichidagi barcha savollar ko'pchillik ovoz bilan hal qilinadi.

Standart loyihalari standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning Soveti tomonidan tasdiqlanadi, undan keyin xalqaro standartlar standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning barcha a'zolari, hamda bu tashkilotning markaziy kotibiyati

tomonidan chop etiladi va tarqatiladi. Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning ustaviga binoan Bosh Assambleya, prezident va vitse-prezident, bosh kotib,

markaziy kotibiyat, texnik boiim lar va texnik qo'mitalar tuziladi[4]. Bosh Assambleya-standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot ning qonunlashtirilgan idorasi hisoblanib, o'z atrofida qoinita a'zolari tomonidan belgilangan va tasdiqlangan delegatlardan tashkil topgan. Qoidaga asosan, ular uch yildabir marotaba chaqiriladi. Bosh Assambleyaning sessiyasida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning ish faoliyati, ish yakuni muhokama qilinadi va keyingi ish faoliyati belgilanadi[4]. Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning mavqeい yildan yilga ortib bormoqda, standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot xalqaro standartlari ko'rsatkichlami birxillashtirishga ega boiib,

jahon fani va amaliyotining zamonaviy yuksalishiga o'z hissasini qo'shamoqda Buning hisobiga standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning mahsulotga boigan standartlari jahon bozorlarida yuqori talab darajasiga erishilmoqda[4], Shu sababli, ko'pgina xalqaro standartlami yaratishda boshqa faoliyatdagi metrologlar va mutaxassislamning ishtirokini talab etadi, hamda standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot qonun lashtirilgan metrologiya bo'yicha Xalqaro tashkilot, Xalqaro elektrotexnik komissiya va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi[4],

Standartlashtirish bo'yicha shug'ullanadigan Xalqaro tashkilot ning texnik qo'mi talari barcha ilmiy-texnik, iqtisodiy va sotsial faoliyatda Xalqaro standartlarning loyihalarni yaratish bilan shug'ullanadi. Eng ko'p e'tibor kimyo, neft-kimyo, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati, metalluriya va tog' ishlari, mashinasozlik transportiga, qurilishga katta e'tibor beradi. [4]. ISO 9000, ISO 9001 va ISO 9004 standartlar raqamida 0 'zbekiston Davlat standartlari sifatida qabul qilingan. 11000 dan ortiq standartlar « 0 'zstandart» agentligining so'rov-yo'riqnomasi jamg'armasidao'z o'mini egallab kelmoqda[1]. Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot a'zolari standart lashtirish bo'yicha Milliy tashkilotlar deyiladi. A'zolari boiib, har bir mamlakatdan bir kishi ishtirok etadi. Bosh Assambleyaning 42yig'ilishida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot a'zoligiga har bir tashkilotdan uchtagacha delegat ishtirok etadi. Bunga

bogiiqsiz ravishda har bir qo'mita standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot a'zoligiga bir kishi ovoz bilan saylanadi. 1970-yil 14-oktyabrdan boshlab, Xalqaro standartlashtirish kuni deb eion qilindi. 1972-yilgacha Xalqaro standartlar «standartlash bo'yicha

Xalqaro tashkilot tavsiyasi» degan nom bilan yuritilgan. Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning tavsiyasiga binoan 1970-yil Anqara shahrida VIII Bosh Assambleyaning standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotida «Xalqaro standartlar» deb qabul qilindi va 1972-yildan boshlab kuchga kirdi. Xalqaro standartlar xalqaro savdodagi barcha texnik to'siqlardan chetlashtirishda samarali vosita bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, bu tashkilot ilmiy-texnik miqyosini va mahsulot sifatini aniqlaydi. Keyingi paytlarda standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot va Xalqaro elektrotexnik komissiya bilan hamkorlikda me'yoriy hujjatlarni yaratish bo'yicha ish olib bormoqda. Xalqaro standartni ko'pchil!ik mamlakatlar o'zgarishsiz milliylik sifatida qabul qilmoqdalar, chunki, xalqaro savdo va mamlakatlar 'rtasida o'zaro kelishuvchanlikning rivojlanishiga olib keladi. O 'zbekiston Respublikasi standartlashtirish bo'yicha regionlararo Assotsiatsiyasiga « 0 'zstandart» agentligini tanitdi.

Milliy idoralaming muvofiqlik faoliyati uchun savdodagi texnik to'siqlami olib tashlash maqsadida, Boltiqbo'yi mamlakatlaridan tashqari bo'Mgan barcha muhitda 1992-yil standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha MDHdavlatlari orasida Xalqaro Davlat Kengashi yaratildi[3], Yevropa ittifoqi doiralarida standartlashtirish Yevropa iqtisodiy uyushmasi (YeIU)ning standartlashtirish sohasidagi faoliyati YelUni tashkil etish to'g 'risida 100 Rim shartnomasining Yevropa iqtisodiy uyushmasi a'zdavlatlari qonun, 43boshqaruv va ma'muriy qarorlarini yaqinlashtirishni buyuruvchi moddasiga asoslangan[4], Yevropa standartlariga afzallik beriladi, natijada G'arbiy Yevropada hududiy standartlashtirishni mustahkamlash va rivojlantirish mumkin boiadi. Standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi (SEN) Yevropa iqtisodiy uyushmasidoirasida birlashgan bozomi yaratish bo'yicha vazifalami amalga oshirish munosabati bilan "texnik to'siqlami" bartaraf etish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Bunday texnik to'siqlar standartiargi farq, ulardan foydalanish qoidalarming zidligi, xavfsizlik texnikasi bo'yicha farqlanuvchi me'yorlar, sogiiqni saqlash va tabiatni asrash me'yorlaridagi farqlar hisobiga paydo boiadi[2].

Bu muammoni hal qilishda Yevropa standartlashtirishiga birinchi navbatda ahamiyat beriladi[4], Yevropa iqtisodiy uyushmasi va Yevropa erkin savdo (YeESA) vakillarining 1961-yilda Parijda boiib o'tgan majlisida Standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasining tashkil etilganligi e'lon qilindi (standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi 1970-yilgacha standartlami muvofiqlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi, deb atalgan). Standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi a'zolari Yevropa iqtisodiy uyushmasi va Yevropa iqtisodiy uyushmasi va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasining 18 mamlakati: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gretsya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Islandiya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, GFR, Fransiya, Shvetsiya va Shvetsariya standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlaridan iborat. Bu-yopiq tashkilot boiib, G'arbiy Yevropa mamlakatlariningyuqorida keltirilgan iqtisodiy guruh a'zolarini birlashtiradi[4].

Standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasining birinchi va protsedura Qoidalari tasdiqlandi. 1970-yilda Standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi Ustavi qayta ko'rib chiqiladi. Bunda Ustavga m aium o'zgartirishlar bilan birga Yevropa standartlari (YeN) ni majburiy yaratish ham kiritilgan[4], Standartlami yaratish b o 'y id m barcha ishlar texnik qo'mitalar tomonidan olib boriladi. Bunday texnik qo'mitalarda texnik 44sekretanatlar iqtisodiy guruh mamlakatlaridan biri tomonidan boshqariladi[4],

Standartlashtirish bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi doirasida 140 dan ortiq texnik qo‘mitalar tuzilgan. Texnik qo‘mitalar bilan bir qatorda, alohida masalalami hal etish uchun maslahat guruhlari tashkil etilgan[4]

3-amaliy mashg’ulot

Standart ularning turlari, ishlab chiqish tartiblari, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartib qoidalari. Xalol standartlari.

2019 - 2023 yillar davri uchun o‘lchashlar birligini ta’minalash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish

KONSEPSIYASI

Taraqqiyotning bugungi bosqichida mahsulot sifati, xavfsizligi va raqobatbardoshligi iqtisodiyot tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishning rentabelligi va samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va davlat boshqaruvida qo‘llanadigan o‘lchash natijalarining aniqligi, xolisligi, ishonchliligi va solishtiriluvchanligini ta’milamasdan, qayd etilgan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish doirasida respublika korxonalari tomonidan texnologik jarayonga zamonaviy uskunalarini, shu jumladan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini nazorat qiladigan o‘lchash priborlarini joriy etish bo‘yicha ishlar bajarilmoqda. Respublikada o‘lchash texnikasi miqdori va yangi turlarining ko‘payishi

tendensiyasini hisobga olgan holda, metrologik faoliyat va uning infratuzilmasining takomillashishi doimiy ravishda O‘zbekistonidagi iqtisodiy o‘zgarishlarga va mahalliy ishlab chiqarish, ayniqsa, kichik biznes korxonalarini va xususiy tadbirdorlikni eng qulay rivojlantirish sharoitlariga mos bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida o‘lchashlar birligini ta’minalash sohasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda, zarur metrologik infratuzilma yaratilgan. Qonun hujjatlariiga muvofiq yagona davlat siyosatini amalga oshiradigan va o‘lchashlar birligini ta’minalash bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtiradigan milliy metrologiya organi — O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi rahbarlik qiladigan davlat metrologiya xizmati faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, o‘lchashlar birligini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha vazifalarning samarali hal etilishiga to‘sinqilik qilayotgan alohida muammoli masalalar va salbiy hodisalar saqlanib qolmoqda. Xususan: o‘lchashlar birligini ta’minalash sohasidagi qonun hujjatlarini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish masalalari hali to‘liq hal etilmagan; o‘lchash vositalari tavsiflarini baholash taribotlarining qonuniyligini ta’minalash, shuningdek, ularni muomalaga kiritishda ham, ulardan foydalanish jarayonida ham, davlat tomonidan tartibga solinadigan sohada ularning yaroqliligin tasdiqlash masalalarining huquqiy tartibga solinishini qo‘srimcha takomillashtirish zarurati mavjud;

respublikaning mavjud etalonlar bazasi alohida o‘lhash turlari bo‘yicha yuqori aniqlikdagi priborlarni metrologik tekshiruv bilan to‘liq qamrab olishga imkonini bermaydi, bu esa ularni xorijiy metrologik institatlarga olib chiqish zaruratinini yuzaga keltiradi;

o‘lhashlar birligini ta’minlash davlat tizimining ishlash jarayonida vazifalarni sifatli bajarishga qodir bo‘lgan malakali metrolog-mutaxassislar yetishmasligi kuzatiladi;

57qo‘llanayotgan o‘lhash vositalari parkining tuzilmasi va hajmini monitoring va tahlil qilish yagona tizimi mavjud emasligi jiddiy muammo hisoblanadi, bu esa o‘z navbatida, davlat va jamiyatning o‘lhashlarga bo‘lgan ehtiyojlarini tadqiq etish va prognoz qilish mexanizmi va metodologiyasini ishlab chiqish imkonini bermaydi. Zamonyaviy jamiyatda ko‘pgina faoliyat sohalarida milliy va xalqaro ehtiyojlar bir-biriga yaqinlashadi va shuning uchun metrologiya va metrologik faoliyat sohasidagi milliy siyosat hamda mamlakat iqtisodiyoti xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi uchun eng qulay sharoitlar yaratilishini ta’minlaydigan va savdoda to‘sqliar yuzaga keltirishiga yo‘l qo‘ymaydigan darajada rivojlanishi kerak.

Shu maqsadda har bir mamlakat o‘zida o‘lhashlar birligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni bajarish qoidalarini mujassam etgan, shuningdek, ob’ektlar, o‘z vakolatlari doirasida o‘lhashlar birligini ta’minlash sohasidagi ishlarni amalgalashiruvchi davlat boshqaruvi organlari va yuridik shaxslarni ifoda etadigan o‘lhashlar birligini ta’minlash milliy tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Shu munosabati bilan hozirgi paytda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, O‘zbekistonning o‘rnatalgan huquq tartibi va iqtisodiyotini noto‘g‘ri o‘lhash natijalarining salbiy oqibatlaridan himoya qilish bir tomondan, o‘lhashlar birligini ta’minlash milliy tizimining keyingi yo‘nalishlarini belgilash, ikkinchi tomondan esa — mamlakatda metrologik infratuzilmani va uning ishlash prinsiplarini takomillashtirish zaruratinini belgilaydi.

Yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasi xorijiy mamlakatlarning o‘lhashlar birligini ta’minlash milliy tizimlarini yaratish tajribasini hisobga olgan holda, Xalqaro qonunchilik metrologiya tashkilotining ko‘rsatmalari va tavsiyalariga muvofiq 2019 — 2023 yillar davri uchun o‘lhashlar birligini ta’minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) ishlab chiqish zaruratinini keltirib chiqardi.

1-bob. Konsepsiyaning maqsadi va vazifalari

1. Konsepsiyaning maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo‘llanadigan o‘lhash natijalarining aniqligi, xolisligi, ishonchliligi va solishtiriluvchanligini oshirish yo‘li bilan keng 58ishlab chiqarish kooperatsiyasini, yuqori texnologik mahsulot parametrlerining muvofiqligi baholanishini ta’minlash;

Metrologik faoliyatning ilmiy, texnik, normativ va tashkiliy asoslarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, respublikada o‘tkazilgan o‘lhash va sinash natijalarining xalqaro darajada tan olinishiga erishish;

Fuqarolar sog‘ligi va hayotini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, milliy tovar va xizmatlarning sifati, xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida foydalaniladigan o‘lhash natijalarini olishda fuqarolar, davlat va jamiyat ehtiyojlarini to‘liq qondirish;

Davlat metrologiya xizmatlari organlarining salohiyatini kuchaytirish, Konsepsiya vazifalarini amalga oshirish va metrologik xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun ularning o'rni va mas'uliyatini oshirish.

2. Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

MOZM ko'rsatma va tavsiyalarini hamda boshqa xalqaro talablarni hisobga olgan holda, O'lhashlar birligini ta'minlash milliy tizimining kompleks huquqiy tartibga solinishini ta'minlash;

Metrologik faoliyat sub'ektlarining funksional vazifalari va mas'uliyat sohalarini aniq chegaralagan holda, O'lhashlar birligini ta'minlash milliy tizimining tuzilmasini takomillashtirish;

O'zbekiston Respublikasi etalonlar bazasini rivojlantirish, davlat metrologiya xizmatlari organlarining laboratoriylarini ayniqsa respublika hududlarida modernizatsiyalash hisobiga iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ustuvor yo'naliшlarining metrologik ta'minot darajasini oshirish;

O'lhash vositalarini kalibrlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali mahalliy mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun sharoit yaratish;

Xalqaro va mintaqaviy metrologiya tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorlik qilish va uni kengaytirish mexanizmlarini rivojlantirish, o'zbekiston respublikasining xalqaro iqtisodiyotga va o'lhashlar birligini ta'minlash xalqaro tizimiga teng huquqli hamkor sifatida integratsiyalashuviga ko'maklashish; 59 Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha samarali tizim shakllantirish, o'lhashlar birligini ta'minlash sohasida ilmiy faoliyatni rivojlantirish;

Metrologiya sohasida axborot texnologiyalarining qo'llanishini kengaytirish hamda o'lhashlar birligini ta'minlash tizimining ishlashida, shu jumladan bajarilayotgan ishlar va xizmatlarni axborotlashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish.

O'lhashlar birligini ta'minlash milliy tizimini yanada

rivojlantirishning asosiy yo'naliшlari

Qonun hujjatlarini takomillashtirish

3. O'lhashlar birligini ta'minlash tizimining normativ bazasini milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor vazifalariga muvofiq takomillashtirish, ularni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirishni ta'minlash.

4. Metrologiya bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish va zarur bo'lsa, metrologik faoliyatning zamonaviy rivojlanish yo'llarini hisobga olgan holda ularni qayta ko'rib chiqish.

5. Respublikada o'lhashlar birligini ta'minlash masalalarini tartibga soladigan xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo'llash huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

6. Xizmatlarni amalga oshirish yagona tartibini belgilash qismida metrologik ishlar va xizmatlarni o'tkazishga qo'yiladigan barcha uchun majburiy bo'lgan talablarni, ishlab chiqilayotgan hujjatlarga, ishlarga haq to'lanishiga, ularni bajarish muddatlariga, mas'ul ijrochilarga, shuningdek, metrologik tekshiruv natijalarining rasmiylashtirilishiga va O'zbekiston Respublikasi o'lhashlar birligini ta'minlash tizimidagi terminologiyaning bir xil qo'llanishiga qo'yiladigan umumiy va maxsus

talablarni o‘rnatish bo‘yicha masalalarni huquqiy jihatdan tartibga solish.

7. Xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va qiyosiy baholash asosida respublikada o‘ramlarga qadoqlangan tovarlarni metrologik tekshiruv va nazoratdan o‘tkazish bo‘yicha huquqiy asoslarni shakllantirish.

4-amaliy mashg’ulot

Mahsulot sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shtrixli kodlash.

Shtrixli kodlash

O‘zbekiston Respublikasining shtrix kodlash tizimi EAN xalqaro tovar raqamlash tizimi doirasida ishlab chiqilgan va faoliyat yuritib, milliy va xalqaro kodlash tizimining muvofiqligini hamda axborot almashish uchun umumiyligini ta’minlaydi. EAN shtrix kodlaridan foydalanish ustidan nazorat GS 1 UZBEKISTAN assotsiatsiyasi (EAN UZBEKISTAN) va O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Shtrixli kodlash markazi tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

“GS1” xalqaro assotsiatsiyasiga (EAN International) a’zo bo‘lgan GS 1 UZBEKISTAN (EAN UZBEKISTAN) assotsiatsiyasi korxonaning arizasiga ko‘ra belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazadi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami berilganligi to‘g‘risida guvohnoma beradi. korxona va EAN tizimiga muvofiq mahsulot kodining tuzilishi.

GS 1 UZBEKISTAN uyushmasi (EAN UZBEKISTAN) tijorat mahsulotlariga EAN-13, EAN-8, ITF-14 kodlarini beradi. GS 1 UZBEKISTAN assotsiatsiyasi (EAN UZBEKISTAN) EAN-8 kodini mahsulot yoki mahsulot qadoqlash yuzasida EAN-13 shtrix-kod belgisini joylashtirish mumkin bo‘lmagan hollarda korxonaning tijorat mahsulotlariga beradi.

O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Shtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi quyidagilarni amalga oshiradi:

- turli xil tashuvchilar va markali o‘z-o‘zidan yopishtiruvchi teglar va teglar bo‘yicha shtrix-kodlarning asl maketlarini ishlab chiqarish;
- shtrix kodlarni asl maketlar va qadoqlarda tekshirish;
- yorliqlar, qadoqlar va mahsulotlarga shtrix kodlarni bosib chiqarish sifatini tekshirish;
- **O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning shtrix-kodlarining asl maketlarining Davlat reestrini yuritish**

Turli xil tashuvchilarda shtrix-kodlarning asl maketlarini va markali o‘z-o‘zidan yopishtiruvchi yorliqlar va teglarni ishlab chiqarish uchun ariza interaktiv shaklda **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (YPXU)** orqali , shuningdek **Shtrixli kodlash markazining veb-sayti** orqali yuborilishi mumkin. va axborot texnologiyalari

Mahsulotdagi shtrixli kod nima uchun kerak?

O‘zbekiston Respublikasida shtrixli kodlash tizimi EAN xalqaro tovar raqamlash tizimi doirasida ishlab chiqilgan va faoliyat yuritadi, milliy va xalqaro kodlash tizimining mos kelishini hamda axborot almashish uchun yagona tilni ta’minlaydi.

EAN shtrixli kodlaridan foydalanish ustidan nazorat GS1 UZBEKISTAN (EAN UZBEKISTAN) assotsiatsiyasi va “O‘zstandart” agentligining “Shtrixli kodlash markazi” davlat korxonasi tomonidan birgalikda amalga oshiriladi. GS 1 (Belgiya, Bryussel) Xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan mamlakatimizga 478 raqamli identifikatsion kod berilgan. GS 1 UZBEKISTAN assotsiatsiyasi korxonaga unga ro‘yxatga olish raqami berilgani to‘g‘risida guvoxnama va EAN tizimiga ko‘ra tovar kod tuzilmasini beradi.

Hozirgi kunda savdo shaxobchalaridan sotib olingan deyarli har kanday tovar o‘z shtrixli kodiga ega (shtrix kod). Bu tovar markirovkasi 1949 yilda Bernard Silver va Norman Djozef Vudland tomonidan mahsulotdan uni nazorat qilishda axborotni avtomatik tarzda o‘qib olish imkonи uchun kashf qilingan.

Birinchi navbatda shtrixli kod savdoda kerak. Agar do‘konda shtrixli kodni o‘qiydigan (POS- terminal deb ataladigan ingl. Point of Sale - "Sotish punktlari") kompyuter kassalariga ulangan avtomatlashirilgan tizim joriy qilingan bo‘lsa, savdo zalining barcha tovarlarida shtrixli kod mavjudligi kassalar (POS-terminallar) oldida xaridorlarga xizmat ko‘rsatish vaqtini qiskartirishga imkon beradi. Kassa chekida xarid kilingan tovarning aniq nomi va uning narxi kayd qilinishi uchun kassirga maxsus o‘qish qurilmasi (skaner) bilan tovar qadog‘idan EAN/UCC-13 raqamini o‘qib olishning o‘zi kifoya.

Bundan tashsari, savdo zalining barcha nazorat kassa mashinalari yagona nazorat qurilmasiga (kompyuterga) ulanganda har qanday vaqtida u yoki bu tovar sotilishining xaqiqiy hajmini, u yoki boshqa buyumlarga bo‘lgan ehtiyoj darajasini baxolash (tikuv buyumlari hollarida anik modellarga bo‘lgan extiyojni baxolash), savdo zalining rastalaridagi tovarlar zahirasini to‘ldirish uchun omborga oldindan buyurtma berish mumkin.

Oddiy qoida: do‘kondagi tovarning shtrixli kodi ham narx, ham xarid qilingan tovar ekvivalenti hisoblanadi. Agar ikki tovar narxi bo‘yicha farqlansa, ular har xil shtrixli kodga (EAN rakamiga) ega bo‘lishi kerak.

Hozirgi vaqtida shtrix kod nafaqat savdoda, balki omborxona hisobini olishda, pochtada, kutubxona ishida va boshqa sohalarda ham tovar bilan ishlashni ancha osonlashtiradi. U bevosita yo tovari ishlab chiqarishda uning upakovkasiga yoki maxsus printerlar yordamida bosiladigan stikerlarga qo‘yiladi.

Chiziqli shtrix kodda, oq-qora chiziqlar tagida raqamlar bilan kuyidagi axborot berilgan:



Birinchi uchta rakamda (478) tovar chiqqan mamlakat (ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi) to‘g‘risidagi axborot shifrlangan. Keyingi 6 ta raqamda ishlab chiqaruvchi korxona to‘g‘risida ma’lumot (001020), ulardan keyingi 3 ta raqamda (041) tovar to‘g‘risida ma’lumot. 1-nazorat soni.

Tovar to‘grisida ma’lumot taqdim etuvchi raqamlar quyidagi axborotga ega: tovar nomi, iste’molchilik xususiyatlari, o’lchamlari, massasi, tarkibi, rangi.

Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga berilgan shtrixli kodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, “O’zstandart” agentligining interaktiv xizmatlar portali www.my.standart.uz orqali olishingiz mumkin.

5-amaliy mashg’ulot

Texnik reglamentlarni ishlab chiqishning asosiy vazifalari. Texnik reglamentlarning turlari va ularni ishlab chiqish.

Texnik reglamentlar. Texnik reglament maqsadlari va mazmuni.

Texnik reglamentlarning maqsadlari.

Texnik reglamentlar quyidagi maqsadlarda qabul qilinadi:

mahsulot xavfsizligi talablarini belgilash orqali fuqarolarning hayotini yoki sog‘lig‘ini muhofaza qilish;

75 atrof-muhitni, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish;

xaridorlarni (iste’molchilarini) chalg‘itadigan harakatlarning oldini olish;

energiya jihatdan samaradorlikni va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash;

savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish;

ichki va tashqi bozorlarda mahsulotning raqobatbardoshliligin oshirish.

Texnik reglamentlarning mazmuni

Texnik reglamentlarda mahsulotning zarar yetkazish xavfi va xatari darajasi hisobga olingan holda:

- biologik xavfsizlikni;
- mexanik xavfsizlikni;
- kimyoviy xavfsizlikni;
- yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlikni;

yong‘in xavfsizligini;
elektr xavfsizligini;
mashinalarni va asbob-uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda
utilizatsiya qilish xavfsizligini;
elektromagnit mosligini;
ekologik xavfsizlikni;
sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligini;
portlash xavfsizligini;
axborot xavfsizligini;
sinash va o‘lhash usullarining birligini ta’minlovchi talablar, shuningdek
mahsulot xavfsizligini ta’minalashga doir boshqa talablar belgilanishi mumkin.

Texnik reglamentlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

qaysi mahsulotlarga nisbatan xavfsizlik talablari belgilanayotgan bo‘lsa,
o‘sha mahsulotlarning to‘liq ro‘yxatini;

xavf darajasi hisobga olingan holda aniqlanadigan muvofiqlikni baholash
qoidalari, shakllari va tartib-taomillarini.

76 Texnik reglamentlar muvofiqlikni tasdiqlash sxemalarini, berilgan muvofiqlik
sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish tartibini, atamalarga, o‘rovga,
tamg‘alashga yoki yorliqlarga doir talablarni va ularni qo‘llash qoidalari o‘z ichiga
olishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir
talablar bo‘lmasligi kerak, bundan mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga
nisbatan insonning hayotiga va sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi xavfi darajasi hisobga
oligan holdagi talablar mavjud emasligi sababli mahsulot xavfsizligi
ta’milanmaydigan hollar mustasno.

Texnik reglamentlarda xaridorlarni (iste’molchilarini) ehtimol tutilgan zarar
to‘g‘risida hamda insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga, hayvonot va
o‘simplik dunyosiga zarar yetkazilishi xavfi qaysi omillarga bog‘liq bo‘lsa, o‘sha
omillar haqida xabardor qilishga taalluqli talablar mavjud bo‘lishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulot xavfsizligiga doir quyidagi maxsus talablar
bo‘lishi mumkin:

qonunchilikda belgilangan ayrim toifadagi fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini
muhofaza qilishga doir talablar;

tabiiy hamda texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarda insonning
hayoti va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof-muhitga yetkaziladigan zararni hamda moddiy
zararni kamaytirishga doir talablar, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning
mol-mulkiga, davlat mulkiga tahdid soluvchi transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish
ob’ektlariga taalluqli talablar.

Davlat sirlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi
ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan texnik reglamentlar qonunchilikda belgilangan
tartibda ishlab chiqiladi hamda qabul qilinadi.

Texnik reglamentlar tugal bo‘lib, O’zbekiston Respublikasining butun
hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi hamda faqat ularga o‘zgartish va
qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan o‘zgartirilishi hamda to‘ldirilishi mumkin.

Texnik reglamentlar texnik reglamentlarni ishlab chiqishning tasdiqlangan dasturiga muvofiq ishlab chiqiladi.

Xalqaro (mintaqaviy) standartlardan texnik reglamentlar loyihamini ishlab chiqishda to‘liq yoki qisman asos sifatida foydalanishi kerak, bundan xalqaro (mintaqaviy) standartlar yoki ularning bo‘limlari texnik reglamentlarning ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan maqsadlariga erishish uchun samarasiz yoxud nomuvofiq bo‘lgan hollar, shu jumladan iqlimga oid va geografik o‘ziga xos xususiyatlar tufayli samarasiz yoki nomuvofiq bo‘lgan hollar mustasno.

Xalqaro
(mintaqaviy)
standartlar bilan uyg‘unlashtirilgan milliy
standartlardan texnik reglamentlar loyihamini ishlab chiqishda to‘liq yoki qisman foydalanishi ham mumkin.

Texnik reglamentlar talablari ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan texnik reglament maqsadlariga nisbatan ko‘proq texnik to‘siqlarni yuzaga keltirmasligi kerak.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar o‘z rasmiy veb-saytlarida texnik reglamentlar ishlab chiqilishi to‘g‘risidagi xabarlarni ushbu reglamentlar ishlab chiqilgan kundan e’tiboran o‘n ish kunidan kechiktirmay e’lon qiladi va manfaatdor taraflarni bu haqda xabardor qiladi.

Agar texnik reglamentlarni ishlab chiqish yoki texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish mahsulotning importiga yoki eksportiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa hamda O’zbekiston Respublikasi tomonidan chet davlatlar bilan ikki tomonlama yoxud ko‘p tomonlama shartnomalar tuzilgan bo‘lsa, texnik reglamentlarni ishlab chiquvchi organ texnik reglamentlarni ishlab chiqish sabablarini ushbu davlatlarning so‘roviga ko‘ra tushuntirib berishi kerak.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar texnik reglament loyihasi rasmiy veb-saytda joylashtirilgan kundan e’tiboran ikki oy ichida uning muhokama qilinishini ta’minlaydi. Texnik reglamentni ishlab chiquvchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasining xulosasi olinganidan keyin texnik reglament loyihasini O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi.

Texnik reglamentlar rasmiy e’lon qilingan paytdan e’tiboran kamida olti oy o‘tgach amalga kiritiladi.

Texnik reglamentlarni qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar bu reglamentlarning dolzarbligi va ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan maqsadlarga muvofiqligi nuqtai nazaridan ularni qayta ko‘rib chiqadi.

Agar texnik reglamentlarning qabul qilinishiga olib kelgan holatlar yoki sabablar boshqa mavjud bo‘lmasa yoxud o‘zgargan holatlar yoki sabablar savdoga nisbatan kamroq chekllovchi ta’sir ko‘rsatadigan usullardan foydalanishga imkon bersa, texnik reglamentlarga tegishli o‘zgartishlar va (yoki) qo‘srimchalar kiritiladi yoki texnik reglamentlar bekor qilinadi.

Texnik reglamentlar:
kuchga kirgan kundan e’tiboran;

texnik reglamentlarni dastlabki tarzda qayta ko'rib chiqish natijalariga ko'ra ularga kiritilgan o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kuchga kirgan kundan e'tiboran;

tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan dastlabki tarzda qayta ko'rib chiqish natijalariga ko'ra ular o'zgarishsiz qoldirilganligi to'g'risida axborot taqdim etilgan kundan e'tiboran besh yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi

6-amaliy mashg'ulot

Sertifikatlashtirish sxemalarini o'rganish.

Zamonaviy pedagogikaning ilg'or texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv usulini qo'llagan holda dars o'tiladi.

Dars jarayonida o'lhash vositalari, texnik ishlanmalar va ko'rgazmali qurollardan keng foydalilanadi (kadaskop, vidoproektor va xokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

Ma'lumki, har qanday akustik o'lhashlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan signalni va o'lhash qurilmasini ish rejimini oldindan tanlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan akustik o'lhashlarda garmonik, chastota bo'yicha modulyasiyalangan, oq shovqin va impul's signallari qo'llaniladi. Ma'lum bir signalni tanlab olishda yuqorida ko'rib chiqilayotgan muammoni hamma jixatlari-texnikaviy, iqtisodiy va amaliy tomonlari xisobga olinishi darkor.

Yuqorida aytib o'tilgan signallardan biri-bu garmonik signal bo'lib, uning vaqt bo'yicha o'zgarish tenglamasi quydagicha aniqlanadi:

$$\varphi(t) = A_0 \sin(\omega t + \alpha), \quad (24)$$

bunda A_0 – garmonik signal amplitudasi;

ω – signal chastotasi; t – vaqt; α – signal fazasi.

Ushbu signalni eng katta qiymati $\omega t + \alpha = \pi/2$ yoki $\omega = \pi/2t - \alpha/t$ shart bilan aniqlanadi. Chastota bo'yicha modulyasiyalangan signal vaqt bo'yicha quydagigi funksiya bilan ifodalanadi:

$$\varphi(t) = A_0 \sin(\omega t + \beta \sin \Omega t), \quad (25)$$

bunda β – amplituda chastotasi o'zgarishini modulyasiyalangan signal chastotasiga nisbati yoki modulyasiya indeksi.

Modulyasiya indeksi katta bo'lган holda chastotaviy modulyasiyalangan signal spektri $\omega_0 + \beta\Omega$ diapazoniga jamlangan bo'ladi. Oq shovqin signali shunday signalki, uning spektri uzliksiz va fil'trlar bilan chegaralangan to'g'ri burchakli chastota xarakteristikasiga ega bo'ladi. Bu signal amplitudasining taxsimlanishi φ extimollik zichligiga ega bo'lган normal (Gauss) qonuniga bo'ysunadi, ya'ni

$$\varphi = \frac{1}{\sqrt{2\pi}\sigma} e^{-\frac{(x-x_{\text{ipm}})^2}{2\sigma^2}}. \quad (26)$$

Korrelyasiya intervali

$$\tau = \frac{3,5}{\Delta\omega}. \quad (27)$$

$$\begin{aligned} \text{Impul's signallari sinusoidal signallarning bir bo'lagi ko'rinishida bo'ladi, ya'ni} \\ \varphi(t) = A_0 \cos \omega t, \quad \text{bunda } 0 < t < \Delta t, \\ \varphi(t) = 0, \quad \Delta t > t > 0. \end{aligned} \quad (28)$$

Impul's signalining spektri burilgan qo'ng'iroq shakliga ega, chunonchi, spektr energiyasining asosiy qismi spektrning $\Delta\omega$ oralig'ida joylashadi va impul's davomiyligi bilan quydagicha bog'lanadi:

$$\Delta\omega = 1/\Delta t. \quad (29)$$

Shuni aytish kerakki, akustik prosesslarda signalning turi asosan o'lchash natijalariga interferension hodisalarning ta'siri juda kichik bo'lishi nuqtai nazardan tanlab olinadi, binobarin, bu xodisalar to'g'ri va qaytgan tovush to'lqinlari bilan bog'langan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, chegaralangan muhit va flyuktasiya jarayonlari mavjud bo'lgan sharoitlarida o'lchashlarning soni katta bo'lishini ta'minlash kerak.

Ma'lumki, uncha katta bo'lмаган masofalarda tovush tebranishlari sferik to'lqin tarqalish qonuni bo'yicha tarqaladi, chunonchi, bunda tovushning bosimi masofaga teskari proposional bo'ladi. Agarda tovush nurlantirgichi bilan qabul qiluvchi qurilma orasidagi masofa tovush kaytaruvchi element bilan nurlantirgich orasidagi masofadan ancha kichik bo'lsa, u holda to'g'ri chiziqli yo'nalihsda tarqaluvchi signal qaytuvchi signaldan katta bo'ladi.

Yuqori talab va aniqlikdagi akustik o'lchashlarda uzlusiz garmonik signal qo'llanilishi mumkin. Bunda qaytgan tovush to'lqinlarining eng katta ta'siri fazalar farqi π ga teng bo'lganda kuzatiladi. Qaytgan va to'g'ri chiziqli yo'nalihsda tarqaluvchi to'lqinlarning o'zoro nisbati 10:1 kabi bo'lishi, ya'ni ularning farqi 20 dB ga farqli bo'lishi lozim. Tovush nurlantirgich bilan to'siq orasidagi masofa 1/5 nisbatta bo'lganda qaytuvchi tovush to'lqinlarining ta'sirini xisobga olmasa ham bo'ladi. Bu nisbatlar ayniqsa akustik o'lchash qurilmalarini darajalashda aniq bo'lishi kerak.

Impul's usulidan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Etarli bo'lgan kichik spektral diapazonni hosil qilish uchun tovush impul'si 6-10 davrli ω_0 chastotaga va shuning uchun impul'sning eng kichik davomiyligi $\Delta t = c/\omega_0$ bo'lishi kerak. Impul's rejimida qaytgan tovush signallarni ta'sirini ularning vaqt bo'yicha ajratish yo'li bilan bartaraf etish mumkin. Ajratish sharti quydagagi formuladan aniqlanadi.:

$$\Delta t = \frac{2(r_2 - r_1)}{c}. \quad (30)$$

Bu shuni ko'rsatadiki, bunda impul'sning davomiyligi tovush qabul qilgich va qaytgan signal orasidagi ikkilangan masofadan ansa kichik bo'lishi kerak. Yana quydagagi shartni ham xisobga olishimiz zarur:

$$\Delta t = \frac{r_2}{c}. \quad (31)$$

(30) va (31) ifodalardan ko'rindan, impul's rejimida olib borilgan akustik o'lchashlarda chastotaviy bog'lanish ham mavjud, binobarin, tovush signalining chastotasi qancha yuqori bo'lsa, (26) shart shuncha osonlik bilan bajariladi. Impul's rejimining (25) sharti bajarilganda tovush to'lqinlarini qaytaruvchi elementning xarakteristika effektivligi va miqdori o'lchash natijalariga ta'sir ko'rsatmaydi.

To'g'ri burchakli shakldagi xonada joylashgan tovush qabul qilgichdagi intensivligining o'rtacha qiymati quydagagi ifodadan aniqlanadi:

$$J = N_a \frac{1}{4\pi r_1^2} - \frac{4(1-\alpha)}{\alpha S} , \quad (32)$$

bunda N_a – tovush manbaining quvvati;

S – xonaning tovush qaytaruvchi yuzalari;

α – xona yuzalarining o'rtacha tovush yutish koefisienti.

(32) ifodadagi birinchi had to'g'ri chiziq bo'yicha tarqalayotgan tovush to'lqinlarining nurlantirgichdan bevosita qabul qilgichga tushgandagi energiyasini ko'rsatadi, ikkinchi had esa bir va bir nechta tovush to'lqinlarining yuzadan qaytib tovush qabul qilgichga tushgandagi energiyalarining yig'indisidir. Chetlanishlarsiz to'g'ri chiziq bo'yicha tarqalayotgan tovush to'lqinlarini qabul qilish uchun r_2 nurlantirgich bilan qabul qilgich orasidagi masofa quydagi ifodadan topiladi, ya'ni

$$r_2 = \sqrt{\frac{\alpha RS}{16\pi(1-\alpha)}}, \quad (33)$$

bunda $R = P_{om}^2 / P_{np}^2$;

P_{om}^2 , P_{np}^2 – tovush qabul qilish qurilmasida hosil bo'lib qaytuvchi va to'g'ri chiziq bo'yicha tarqalayotgan tovush to'lqinlarining bosimlari.

Impul's rejimi bo'g'iq tovush kameralarida juda yaxshi akustik o'lchash natijalarini beradi. Uning qo'llanilishi impul's signaling davomiyligi orasidagi munosabatlar, tovush to'lqinining uzunligi va xona o'lchamlari bilan chegaralanadi. Ma'lum L o'lchamga ega bo'lgan xona uchun impul's signaling mumkin bo'lgan fazoviy uzunligi $\Delta t.c = -0,5$ dan katta bo'lmasligi talab etiladi.

Tovush nurlantirgichlarning akustik quvvatini aniqlash uchun odatda har biri alohida sermashaqqat va murakkab hisoblanadigan bir qator o'lchashlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Akustik quvvatni aniqlashning keng tarqalgan usullaridan biri tovush nurlantirgichdan R masofada R tovush bosimini o'lchashlar natijalari asosida quvvatni hisoblash hisoblanadi. Tovush nurlantirgichlarining quvvatini o'lchash akustik tovush maydonining energetik xarakteristikalarini o'lchashga olib kelinadi.

Tovush nurlantirgichlarining quvvatini o'lchashni ikki guruxga bo'lish mumkin: elektroakustik o'zgartkichlarning quvvatini aniqlash; shovqin manbalarini quvvatini o'lchash. Aksariyat hollarda elektroakustik tovush tebranishlari o'zgartkichlarning akustik quvvatini aniqlash uchun bir qator yordamchi o'lchashlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi, chunonchi, ularni o'ziga yarasha qiyinchiliklari va murakkabliklari mavjud. Tovush tebranishlarining akustik quvvatini aniqlashning juda keng tarqalgan usullaridan biri-bu tovush nurlantirgichidan r masofada tovush bosimini o'lchash natijalaridan foydalanib quydagi formuladan xisoblashdan iborat:

$$N_a = \frac{4\pi P^2 r^2}{\rho c \gamma}, \quad (34)$$

bunda ρs – tovush tebranishlari tarqalayotgan muhitning akustik qarshiligi;

γ – tovush nurlantirgichining yo'nalgalilik koefisienti.

Bu usul faqat yassi akustik to'lqinlar bilan o'lchashda qo'llaniladi. Shuning uchun bu o'lchashlarni o'lchash o'zgartkichidan uzoq maydonda o'tkazish mumkin, binobarin, bunday masofalarda akustik to'lqinni yassi to'lqin deb xisoblasa bo'ladi.

17-rasmida suyuqlik muhitida akustik maydonlarning energetik xarakteristikalarini o'lchashga mo'ljallangan akustik vattmetrning konstruktiv sxemasi tasvirlangan.

8. Tovush maydonini o'rganishda eng muhim xarakteristikalarni aytin.

9. Yo'naltirilganlik xarakteristikasi deb nimaga aytildi?

10. Yo'naltirilganlik xarakteristikasini o'lchash ishlari nima vositasida amalga oshiriladi.

7-amaliy mashg'ulot

Xalqaro ISO 9001 seriyasidagi standartlar bo'yicha ishlarni tashkil etish.

ISO 19011:2002 xalqaro standartida quyida keltirilgan atama va ta'riflar qo'llaniladi.

Audit (baxolash) – joriy kilingan tizimning talab etilgan mezonlarini qaydarajada bajarilishini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan o'rganishlar natijalarini olish va ularni ob'ektiv baholashni tizimli, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayoni.

Qayd qilib o'tishimiz joizki, ichki audit sifat tizimi jarayonlaridan biri hisoblanadi va uni boshqarish PDCA (Rejalashtirish - Bajarish- Nazorat -To'g'rilash) sikliga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Audit mezonlari – sifat soxasidagisiyosat va maksad, protseduralar yoki o'rnatalgan talablarni jamlanmasi bo'lishi mumkin.

Audit maqsadlariga qarab, audit mezonlari sifatida xalqaro standartlar, ichki me'yoriy hujjatlar (hujjatlashtirilgan protseduralar, ishchi yo'riqnomalar), rejalar, dasturlar, shartnomalar va tashkilot sifat tizimining boshqa hujjatlari qo'llanilishi mumkin.

Audit guvohliklari – audit mezonlari bilan bog'liq va tekshirilishi mumkin bo'lgan yozuvlar, faktlarni bayon qilinishi yoki boshqa ma'lumotlar (ya'ni, audit mobaynida tekshirilgan, jamlangan va asoslangan ma'lumotlar).

Izoh. Audit guvohliklarisifatli yoki miqdoriy bo'lishi mumkin.

Audit kuzatuvlari – audit guvohliklarini audit mezonlariga muvofiq baholanishi natijalari.

Izoh. Audit kuzatuvlari audit mezonlariga muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni, shuningdek yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatishi mumkin.

Audit natijalari bo'yicha xulosa – audit maqsadlari va auditni barcha kuzatuvlarini ko'rib chiqilgandan so'ng auditorlar guruhi tomonidan raxbaryatga taqdim qilinadigan natijaviy ma'lumotlar.

SHunday qilib, audit mobaynidan yig'ilgan ma'lumot, tekshirilgandan so'ng audit guvohligiga aylanadi.

Auditni barcha kuzatuvlari tahlili natijalari bo'yicha audit xulosasi shakllanadi.

Tekshirilayotgan tashkilot – audit o'tkazilayotgan tashkilot.

Auditor – audit o'tkazish uchun tegishli layoqatga ega shaxs.

Auditorlar guruhi – audit o'tkazish uchun ma'lum tayyorgarlikdan utgan bir yoki bir necha auditorlar, audit utkazish uchun zaruriyat bo'lganda texnikaviy ekspertlar xam jalb kiinishi mumkin.

1 izoh. Auditorlar guruhiga kiruvchi auditorlardan biri guruhi rahbari qilib tayinlanadi.

2 izoh. Auditorlar guruhiga tayyorgarlikdan o'tayotgan auditorlar (stajerlar)

kiritilishi mumkin.

Texnikaviy ekspert – tekshirilayotgan ob’ektga nisbatanmaxsus bilim yoki etarli tajribaga ega bulgan auditorlar guruhiga jalgan shaxs.

1 izoh. Maxsus bilim yoki tajriba – tekshirilishi kerak bo’lgan tashkilot, jarayon yoki faoliyatga taalluqli bo’lishi mumkin.

2 izoh. Texnikaviy ekspert auditorlar guruhida auditor sifatida ish olib bormaydi.

Audit dasturi – aniq muddatlarga rejalashtirilgan va aniq maqsadga yo’naltirilgan bir yoki bir necha auditlar yig‘indisi.

Izoh. Auditlarni rejalashtirish, tashkil qilish va bajarish uchun zarur barcha faoliyatlar audit dasturiga kiritiladi.

Audit rejasi- faoliyat turlari va audit tadbirlarini bayoni. (Audit rejasi har bir aniq audit uchun tuziladi).

Audit hajmi - audit mazmuni va chegaralari.

Izoh. Hajm odatda tashkiliy birliklar joylashishi, faoliyat va jarayonlar, shuningdek qamrab olinadigan vaqt davrini o’z ichiga oladi.

3. Auditlarni sinflanishi

Auditlar turlari, bosqichlari va o’tkazish metodlari bo‘yicha kuyidagicha sinflanadi (1 rasm).

BIRINCHI tomon auditi (ichki audit)

Bu tashkilot mutaxassislari tomonidan o’tkaziladigan audit, ya’ni tashkilotdan o’z shaxsiy tizimlari, protseduralari va ishlarini, ularni belgilangan talablarga muvofiqligiga ishonch hosil qilish maqsadida tadqiqot qilishni talab qiluvchi ichki tekshirishdir. Ichki audit rahbariyatga:

- buyruqlar, ko’rsatmalar va farmoyishlari bajarilayotganligi yoki bajarilmayotganligi haqida;
- tizim belgilangan darajada natijali va samarali yoki yo’qligi haqida;
- qaerda tizimda buzilishlar borligi haqida ma’lumot beradi.

Ichki audit butun tashkilot bo‘yicha ijobjiy «aloqa kanallari»ni ta’minalashga imkon beradi va faoliyatni yaxshilash imkoniyatlarini aniqlaydi.

Tashkilot o’z ichki auditlariga rahbarlik qiladi va sifatni boshqarish tizimining uzi qo’llayotgan standart talablariga kay darajada muvofiqligini namoyish qiladi. Biroq, ichki auditlar natijalariga boshqa tashkilotlar tomonidan ishonchsizlik bilan qaralishini kutish mumkin, ammo ichki auditlarni sertifikatlashtirishga tayyorgarlik jarayonida, tashkilot ikkinchi va uchinchi tomonidan tekshirishga tashkilotni harakatini aniqlash mumkin.

IKKINCHI tomon auditi

Bu tashkilotni iste’molchi yoki ushbu tashkilot faoliyatiga alokador yoki ma’lum darajada kizikishi mavjud bulgan tashkilot nomidan tekshirilishi. Ikkinchi tomon auditining maqsadi – kizikuvchi tomon talablari bajarilishiga kafolat berilgani holda va doimiy ravishda talab etilgan darajada bajarilishi haqida iste’molchini ishonchini ta’minalash uchun tashkilot sifatni boshqarish tizimi to‘g‘risida etarli ma’lumot olishdir.

Audit to‘g‘ri o’tkazilishi va sifat tizimining ijobjiy natijaviyligini aniq ko’rsatishi zarur. Ikkinchi tomon audit natijalari ikkala tashkilot kelajagiga ta’sir ko’rsatuvchi tijorat qarorlarini keltirib chiqishini yodda tutish kerak. SHuning uchun ham, kafolatlangan aniq ma’lumot olish uchun, audit malakali, tegishli tayyorgarlikdan o’tgan xodimlar tomonidan o’tkazilishi kerak.

Agar biror-bir tashkilot boshqa tashkilotda audit o‘tkazish uchun mustaqil tashkilot (masalan, sertifikatlashtirish bo‘yicha idora yoki konsalting kompaniyasi)ga buyurtma bersa, va tekshiruvchi tashkilotdan tekshirish natijalarini olsa, auditni buyurtma bergen tashkilot o‘tkazgan deb hisoblashimiz mumkin.

UCHINCHI tomon auditi

Tashqi mustaqil tashkilot (uchinchi tomon) tomonidan o‘tkaziladigan tekshirish. Odatda uchinchi tomon auditni sertifikatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.


Ikkinci tomon auditni kabi, uchinchi tomon auditni uz navbatida auditorga va tekshiriladigan tashkilotga alohida talablar belgilaydi. Audit natijalari sifat tizimi holatini aniq va haqqoniy ko‘rsatishi uchun, auditor etarli tajribaga ega bulgan, ma’lum tayyorgarlikdan utgan, o‘z ishining ustasi va layoqatli bo‘lishi kerak.

Tashqi auditlarni ijobiy tomonlari:

- yuqori darajadagi ob’ektivlik (chunki, bu «tashqaridan qarash»);
- isjni yuqori samaradorligi (chunki, tashqi audit yuqori malakali auditorlar tomonidan o‘tkaziladi);
- tekshirilayotgan tashkilot tomonidan tanqidga pozitiv qaraladi;
- auditorlarni yuqori malakasi hisobiga tekshirilayotgan tizimni yuqori ob’ektiv baholanishi;
- tekshirilayotgan tashkilot tomonidan tashqi auditlar natijalaridan reklama maqsadlarida foydalanish;
- sifat tizimini o‘rnatilgan talablarga muvofiqligi va natijaviyligini namoyish qilish uchun tashqi auditlar natijalaridan foydalanish imkoniyati;
- xarajatlarni hisoblash aniqligi.

Tashqi auditlarni salbiy tomonlari:

- - korxona an’analarni bilmaslik;
- - tekshirilayotgan tashkilot xodimlari tomonidan auditorlarga «begona shaxs» sifatida qaralishi, oqibatda ba’zi xollarda kerakli ma’lumotlarni berkitilishi;
- - auditorlarni korxonadagi norasmiy peshqadamlarni bilmasligi, bu esa kiska vaktda zarur ma’lumotlar olinishini qiyinlashtiradi;
- - auditor tomonidan audit mobaynida olingan maxfiy ma’lumotni oshkor qilinishi ehtimolining mavjudligi;
- - audit o‘tkazish chegaralangan muddatlarda amalga oshirilishi sababli butun tizimni to‘liq tekshirish imkoniyati yo‘qligi, audit tanlab olingan ob’ektlarda utkazilganligi sababli xulosa mavjud ma’lumotlar asosida chiqariladi.



1- расм. Аудитларнинг синфланиши ва турлари

Auditni bosqichlari

Ichki va tashqi auditlar odatda ikki bosqichdan iborat buladi: moslikka (adekvatlik) tekshirish va muvofiqlikni tekshirish.

Moslikni tekshirish

Hujjatlashtirilgan tizim qo'llanilayotgan standart talablariga mosligi darajasi aniqlanadi.

Moslikni tekshirilishi quyidagicha bajarilishi mumkin:

- qo'llanilayotgan standart talablarini, ushbu talablarga hujjatlashtirilgan tizimni mos keluvchi qismlarini aniqlagan holda ko'rib chiqilishi.
- hujjatlashtirilgan tizimni, qo'llanilayotgan standart talablari bilan solishtirgan holda bandma – band ko'rib chiqilishi.

Uchinchi tomon auditida barcha, ikkinchi tomon auditida ko'pgina muvofiklikka tekshiruvlar albatta moslikka tekshirish natijalariga bog'liq, chunki sifat tizimi hujjatlari qo'llanilayotgan standart talablariga mos kelmasa, joylarda olib borilayotgan faoliyatning hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish ma'noga ega emas.

Muvofiqlikni tekshirish

Hujjatlashtirilgan tizim korxona yoki tashkilot xodimlari tomonidan tulik tushunilishi, joriy qilinganligi, xarakatda ekanligi va qo'llab-quvvatlanishi darajasini belgilash uchun o'tkaziladigan audit.

Qo'llanilayotgan standart u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun hujjatlashtirilgan protsedura ishlab chiqilishini talab qilmasa, muvofiqlikni tekshirish, qo'llanilayotgan standart talablarini bajarilishiga nisbatan amalga oshiriladi.

8-amaliy mashg'ulot

Maxsulot sifati va sifatni boshqarish.

Mahsulot deganda mehnat faoliyati jarayonining moddiylashtirilgan natijasi tushunilib, u foydali xossalarga ega bo'ladi, aniq ishlab chiqarish jarayonlarida olinadi va muayyan jamoa va shaxsiy harakterli ehtiyojlarni qanoatlashtirishi uchun mo'ljallanadi.

Mahsulotlar tayyor holda, aniq bozorda sotilishi uchun yaroqli yoki tayyorlash jarayonida, ishslashda, etishtirishda, ta'mirlashda va shunga o'xshashlarda bo'lishi mumkin.

Mahsulot ta'rifi yana boshqa bir hujjat – xalqaro standart ISO 8402 (1991y) da qisqa holda keltirilgan bo'lib, «mahsulot - faoliyat yoki jarayon natijasi» deb ta'riflangan.

Mahsulot moddiylashtirilgan (masalan, qismlar, qayta ishlanadigan materiallar) yoki moddiylashtirilmagan (masalan, axborot yoki tushuncha) yoki ularning o'zaro uygunlashgan birikmasi bo'lishi mumkin. Mahsulot o'z ichiga xizmatni ham oladi.

Mahsulotni yaratilishida, sotilishida va iste'molida yoki ishlatilishida namoyon bo'ladigan xolisona uning xossasi hisoblanadi.

Mahsulot ko'pgina turli xossalarga ega bo'lib, u yaratilishida, sotilishida va iste'molida yoki ishlatilishida namoyon bo'lishi mumkin. «Ishlatilishi» atamasi shunday mahsulotga nisbatan ishlatilishi mumkinki, bunda mahsulotdan foydalanish jarayonida u o'z resursi hisobiga sarflanadi.

«Iste'mol» atamasi shunday mahsulotga nisbatan ishlatiladiki, uning vazifasiga ko'ra, ishlatilishida o'zi sarflanadi.

Mahsulot xossalari shartli ravishda oddiy va murakkab turlarga bo'lish mumkin.

Mahsulotning oddiy xossasiga massa, sig'im, tezlik va boshqa ko'rsatkichlar kiradi.

Mahsulotning murakkab xossasiga misol sifatida buyum ishining ishonchlilagini olishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida bir qator oddiy xossalarni o'z ichiga oladi (buzilmasligi, chidamliligi, ta'mirlanuvchanligi va saqlanuvchanligi kabilalar).

Mahsulot sifati deganda, uning vazifasiga binoan muayyan ehtiyojlarni qanoatlantirishga yaroqlilagini belgilaydigan xossalr majmuasi tushuniladi.

Mahsulot sifati, uni tashkil etuvchi buyum va materialarning sifatiga bog'liq. Agar mahsulot mashinasozlik buyumlaridan tashkil topgan bo'lsa, mahsulotning sifatini belgilovchi, uning ayrim buyumlarining hamda birxillik, o'zaro almashuvchanlik va boshqa shunday xossalaring majmuasidan tashkil topadi. Masalan, paxta terish mashinasining sifati, uni tashkil etuvchi dvigatelning, shpindellarning, bolt va gaykalarning, g'ildirak va undagi rezina kabilarning sifatiga bog'liq.

Mahsulot belgisi deganda mahsulotning har qanday xossalari va holatlarining miqdoriy va sifat tavsiflari tushuniladi. Sifat belgisiga materialning rangi, buyumning shakli, detalning sathida himoya va bezak uchun ma'lum qoplamlarning bo'lishi, prokatning yon tomoni (burchak, tavr, shvellar va shunga o'xshashlar), mahsulot detallarining biriktirish usullari (payvandlash, yopishtirish, parchinlash va shunga o'xshashlar), sozlash usullari (qo'lida, yarim avtomatik, avtomatik va shunga o'xshashlar) kiradi.

Sifat belgilari orasida mahsulot sifatini boshqarishda katta ahamiyatga ega bo'lgan statistik nazoratda qo'llanuvchi muqobil belgisi bo'lib, faqatgina ikkita bir – birini inkor

qiluvchi imkoniyatlari bo‘lishi mumkin. Masalan, buyumlarda yaroqsizlikning borligi yoki yo‘qligi, detallarda ximoya katlami borligi yoki yo‘qligi va shunga o‘xshashlar.

Mahsulotning miqdoriy belgisi uning parametridir. Mahsulot sifati o‘zining ko‘rsatkich alomati bilan ifodalanadi.

2.Mahsulot sifatining ko‘rsatkichi

Mahsulot sifatining ko‘rsatkichi mahsulot sifatiga kiruvchi bitta yoki bir necha xossasining miqdoriy tavsifi, uning yaratilish va ishlatilishi yoki iste’molidagi muayyan sharoitlarga qo‘llanilishini qurilishiga aytiladi.

Sifat ko‘rsatkichlari quyidagi asosiy talablarga javob berishlari lozim:

- **Turg‘unligi;**
- **Rejali asosda ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga yordam berishi;**
- **Fan va texnika yutuqlarini inobatga olinishi;**
- **Muayyan vazifasiga ko‘ra ma’lum ehtiyojlarni qondirishga layoqatliligi.**

Vazifaviy ko‘rsatkichlar mahsulot xossalarini tavsiflaydi, ularni asosiy vazifalarni belgilaydi, mahsulotni qo‘llash sohasini aniqlaydi. Mashina va asbobsozlik, elektrotexnika va boshqa buyumlar uchun bu ko‘rsatkichlar buyum tarafidan bajariladigan foydali ishni tavsiflaydi.

Turli xil konveyrlar uchun vazifaviy ko‘rsatkichlar, unum dorlik, yuk uzatish masofasi va balandligi; o‘lhash asboblarida – aniqlik ko‘rsatkichlari, o‘lhash chegarasi va shunga o‘xshashlarni tashkil etadi.

Tarkib va tuzilish ko‘rsatkichlari mahsulotdagi kimyoviy elementlarni yoki guruxli to‘zilishlar miqdorini ifodalaydi.

Tarkib va tuzilish ko‘rsatkichlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Po‘latning tarkibiy komponentlarini massa ulushlari;
- Kislotalardagi turli tarkiblarining konsentratsiyasi;
- Koksdagi oltingugurtning, kulning massa ulushi;
- Oziq – ovqat va boshqa mahsulotlardagi kandning, tuzlarning massa ulushlari kiradi.

Xom-ashyo, materiallar, yoqilgi va elektr quvvatlarini tejab foydalaniladigan ko‘rsatkichlari buyumning xossalarini tavsiflaydi va uning texnikaviy takomillanish darajasini yoki ular tomonidan iste’mol qilinayotgan xom-ashyo, materiallar, yoqilgi va elektr quvvatlar me’yorini ifodalaydi.

Buyumlarni tayyorlashda va ishlatishda shunday ko‘rsatkichlarga xom-ashyo, materiallar, yoqilg‘i va elektr quvvatini asosiy turlarining solishtirma sarflanishi (sifat ko‘rsatkichining asosiy o‘lchovi); moddiy resurslardan foydalanish koeffitsienti, ya’ni foydali sarflanishiga nisbati tushuniladi, foydali ish koeffitsienti va shunga o‘xshashlar kiradi.

Maxsulotlarning murakkab xossasini tavsiflovchi, uning ehtiyojini, maqsadini va topshiriqga binoan berilgan vazifalarni bajarishga mahsulotning funksional layoqatligi deb ataladi.

Mahsulotning badiiy ifodalanishini, shaklning to‘g‘riligini, kompozitsianing butunligini tavsiflovchi murakkab xossa mahsulotning estetikligi deb ataladi.

Mahsulotning xavfsizligi – bu uning murakkab xossasi bo‘lib, inson uchun zararli ta’sir etish miqdorini belgilaydigan ko‘rsatkichidir.

Mahsulotning ekologikligi ham uning murakkab xossalardan biri hisoblanib, atrof – muhitga zararli ta’sir etish miqdorini belgilaydi.

Tayyor mahsulot o‘zining iste’moldagi bahosi va boshqalariga hamda uning iste’mol yoki ishlatilishdagi harajatlarning yig‘indisiga mahsulotning iste’mol bahosi deb ataladi.

Mahsulot, ham muayyan ehtiyojga mos kelish darajasi bo‘yicha, ham shu ehtiyojni qanoatlantirishdagi harajatlar bo‘yicha raqobatlanuvchi mahsulotlardan uning ajralib turishini ifodalovchi mahsulotning tavsifi uning raqobatbardoshligi deb ataladi.

Mahsulot bozori deganda, uning sotilishida ehtiyoj va taklif orasidagi o‘zaro muvofiqlashtirish sharoitlaridagi tizim tushuniladi.

O‘zaro muvofiqlashtirish darajasi esa bozor munosabatlarini boshqarishda va turg‘unligida mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Marketing deganda, mahsulotning har bir hayotiy davri bosqichlarida amalga oshiriladigan uning raqobatbardosh qilib yaratilishini va bozorda sotilishini ta’minlaydigan faoliyat tushuniladi.

Sifat halqasi deb ataluvchi tushuncha mahsulotning butun hayotiy davrini o‘z ichiga oluvchi (to‘liq) mujassamlashgan faoliyatdir (5 - rasm).

Sifat halqasi ehtiyojlarni aniqlashdan tortib, to ularni qanoatlantirishning baholashgacha bo‘lgan turli bosqichlarda sifatga ta’sir etadigan, o‘zaro bog‘langan faoliyat turlarining nazariy tushunchalar modelidir.

Sifat ham boshqa tushunchalar singari o‘zining tizimiga egadir.

Sifat tizimi deganda, tashkiliy tuzilish, ma’suliyati, ish tartibi, jarayonlar, resurslar yigindisi bo‘lib, sifatning umumiy boshqaruvining amalga oshirilishi tushuniladi.

Belgilangan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarining nomenklaturasini tanlash, bu ko‘rsatkichlarining qiymatlarini aniqlash va ularni asos bo‘luvchi qiymatlar bilan taqqoslashni o‘z ichiga oluvchi ishlarning yigindisi mahsulot sifatining darajasini baholash deb ataladi.

Mahsulot sifatining darajasini baholash uchun mahsulotlar ikkita turkumga bo‘linadi:

1. Foydalanishda sarflanadigan mahsulot;
2. O‘z resursini sarflaydigan mahsulot.

1 – turkum mahsulotlari vazifasi bo‘yicha foydalanish jarayonida sarflanadi. Odatda, qayta ishslash kaytmas jarayon hisoblanadi: (xom-ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar), yokilgining yonishi, oziq – ovqat mahsulotlarining o‘zlashtirilishi, ayrim vaqtida qaytariluvchi jarayon ham bo‘lishi mumkin (masalan, erituvchilarni rekuperatsiya va regeneratsiyasi).


Vazifasi bo‘yicha 2 – turkum mahsulotlaridan foydalanishda, uning resursi sarflanadi. Bu holda mahsulot texnikaviy va ma’naviy eskirishi hisobiga foydalaniladi.

Mahsulotning ko‘rsatilgan tavsiflanishining qo’llanishi quyidagi amallarni bajarishda bir qator engilliklar yaratadi:

- Muayyan gurux mahsulotining birgina ko‘rsatkichining nomlarini tanlashda;
- Mahsulotdan foydalanish soxasini aniqlashda;
- Bir yoki bir nechta asos bo‘luvchi namunalar sifatida tanlab olishda;

- Mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari nomlariga davlat standartlarining tizimlarini yaratishda.

5– rasm. Mahsulot sifatini shakllantiruvchi va ta’minlovchi bosqichlar («Sifat halqasi»).



Sanoat mahsulotining tasniflanishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mahsulot sifatini baholash uchun ilmiy – uslubiy ta'minlash, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi orasidagi munosabatlar mol – pul xususiyatlari deyarli mos kelishi lozim. Buning uchun ushbu kompleks masalalarni hal qilish lozim bo'ladi:

- Har taraflama mahsulot sifatini tavsiflovchi xossalarni va ko'rsatkichlarni ajratib olib, me'yoriy hujjatlarda mahsulotni va uning sifatini baholash natijasida xolisona ifodalash;
- O'zaro bog'langan sifat, miqdor va iste'moldagi narxlarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste'molchilarining turli bosqichlarda birgalikdagi mahsulot sifatini xolisona baholash;
- Mahsulot sifati hamda «sifat halqa» sining har bir bosqichidagi uning texnikaviy darajasi va raqobatbardoshligi haqida hamma zarur xolisona amaliy ma'lumotlarni olish.

Mahsulot sifatining ko'rsatkichlari nomenklaturasining tanlab olishni asoslash quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi:

- Mahsulotning ishlatilishidagi sharoitlarni va vazifasini;
- Iste'molchilar talablarining taxlilini;
- Mahsulot sifatini tavsiflanuvchi tarkibini va tuzilishini;
- Sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan asosiy talablarni.

Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni to'rt toifaga bulish mumkin:

- 1.Texnikaviy;
- 2.Tashkiliy;
- 3.Iqtisodiy;
- 4.Ijtimoiy.

Texnikaviy omillarga uskunalarning jihozlanish, asboblarning hamda nazorat vositalarning, texnikaviy hujjatlarning holati; dastlabki materiallar, yarimfabrikatlarning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

Tashkiliy omillarga rejалик, bir maromda ishlash, texnikaviy xizmat va uskunalarni ta'mirlash; materiallar, komplektlanuvchi buyumlar, jihozlanishi, asboblarni texnikaviy hujjatlar va nazorat vositalari bilan ta'minlashganligi, ishlab chiqarish madaniyati, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish; ovqatlanish, ish vaqtida dam olishni tashkil etish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy omillarga mehnatga haq to'lash shakllari, oylik maoshning miqdori; yuqori sifatli mahsulotni va ishni moddiy rag'batlantirish, mahsulotning yaroqsizligi uchun oylik maoshidan ushlab qolish, sifat darajasi, tannarxi, mahsulotning bahosi va shunga o'xshashlar kiradi.

Ijtimoiy omillarga kadrlar tanlash va joy - joyiga qo'yish, malaka oshirishni tashkil qilish, ilmiy – texnikaviy ijodni, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, turmush sharoitlari, o'zaro munosabatlar jamoadagi psixologik iqlim va tarbiyaviy ishlar kiradi.

Mahsulot sifatini tashkil topishi, uning hamma hayotiy bosqichlarida - tadqiqot va loyihalash ishlarida, ishlab chiqarishda; muomalada; iste'molda yoki ishlatilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot vam loyihalash ishlarini mahsulotning sifatini oshirishida belgilovchi o'rinni egallaydi. Bu bosqich sifatni tashkil topishining boshlanishi hisoblanib, bunga ilmiy – texnika taraqqiyotining qo'llanishi natijasida hamda me'yoriy hujjatlarni

mahsulot ishlab chiqarish uchun uni muomalada, iste'molga yoki ishlatalishiga belgilangan iqtisodiy ko'rsatkichlariga rioya qilgan holda tayyorlash natijasida erishiladi.

Bu bosqich quyidagi tadbirlarda amalga oshiriladi:

- andozalar, sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan namunalarga yo'naltirilgan ilmiy – tadqiqot, tajriba - konstruktorlik va boshqa ishlarni bajarish;
- me'yoriy hujatlarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- standartlarga rioya kilinishida o'z – o'zini nazorat qilishni amalga oshirish;
- mahsulot sifatining darajasini istiqbollash va me'yorlash.
- Mahsulot sifatini rejalgangan darajasiga erishish, turli usullarni tayyorlash choralarini joriy qilish, sinash va nazoratga yo'naltirilgan konstruktorlik va texnologik tadbirlarni ishlab chiqish;
- Bizda va xorijda chiqarilayotgan shu xildagi mahsulot sifati haqidagi axborotni tahlil qilish;
- Mahsulot sifatining ko'rsatkichlarini va shuningdek sifat darajasini baholashni tasniflash va aniqlash.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimlari ishlab chiqish bosqichda texnikaviy darajani rivojlanishini doimo yuqori sur'atlarda bo'lishini ta'minlaydi. Murakkab va mas'uliyatli buyumlar uchun ishlab chiqishni sifatni boshqarish jarayonida maxsus ish rejalarini tuziladi.

Maxsus konstruktorlik ilmiy - tadqiqot yoki loyixalash institutlarida, sanoat korxonalarida kostruktorlik texnologik bo'lim (byuro) larda yangi mahsulot namunalarni ishlab chiqish mumkin. Bunda asosiy e'tibor ushbu buyum namunasi xakikatdan yangi bo'lishiligiga yoki ishlab chiqarishidagi buyumlarni takomillashganligiga qaratiladi.

Mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash bosqichida optimal texnologik jarayonlarni tanlash qiyin va mas'uliyatli vazifa, chunki bu bosqichda doimiy texnologiyaning qiyinlashish hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash zaruriyati bo'ladi. Tayyorlash bosqichida mahsulot sifatini oshirish korxonaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida esa quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi mo'ljallanadi:

- Mahsulotni bevosita tayyorlash;
- Uskunalarining, jihozlarning, nazorat o'lchaning texnikasining sifatini kerakli darajada bo'lishini ta'minlash va nazorat qilish;
- Mahsulot sifatini oshirish, yaroqsizlikni oldini olish, me'yoriy hujatlarga mos kelmaydigan mahsulot ishlab chiqarish sabablarini bartaraf qilish tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish;
- Me'yoriy hujatlarni joriy qilish va ularga kat'iy rioya qilish;
- Korxonaga tushayotgan xom-ashyoning, materiallarning, yarimfabrikatlarning va komplektlanuvchi buyumlarning kirishdagi nazoratini o'rnatish;
- Chiqarilayotgan mahsulotning ish bajarishdagi, qabulidagi va sinashdagi nazoratini o'rnatish;
- Tekshiruvchan nazoratga, me'yoriy hujatlarga rioya qilish;
- Ishlatish bosqichidagi mahsulotning sifati haqidagi axborotni yig'ish va to'plash, uning yaroqsizligini, u haqidagi shikoyatlarni hisobga olish va tahlil qilish;

- Xom-ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, komplektlanuvchi buyumlarni va tayor mahsulotni omborlarda, korxona ichidagi transportlarda me'yoriy hujjatlarning talablariga binoan olib yurilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- Belgilangan sifat darajasidagi mahsulotni ishlab chiqarishda korxonaning xodimlarini moddiy va ma'naviy ragbatlantirish.

Ishlab chiqarish birlashmalarida, korxonalarda ishlab chiqarish bosqichda belgilangan maqsadlarga va vazifalarga erishishda mahsulot sifatini boshqarish tizimlari ta'minlaydi.

Muomala va savdo – sotiq bosqichlarida boshqarishning yo'nalishi mahsulotni saqlashga, transport tashishga, sotishga belgilangan rejali topshiriqlarga, standartlarga va texnikaviy shartlarga binoan kerakli sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Mahsulotni transportlarda tashishda ortish va tushirish qoidalariga rioya etilishi ko'zda tutiladi.

Tayyor mahsulotni omborlarda saqlanishida issiqlik va boshqa noqulay ta'sirlaridan saqlanishi zarur. Bu bosqichda tayyor mahsulotning sifati yuqori ravishda saqlanishi lozim va iste'molchiga belgilangan sifat ko'rsatkichlarida etkazilishini sifat boshqarish tizimlari ta'minlaydi.

Bu maqsadlarga erishish uchun korxona - tayyorlovchi quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

- Iste'molchidagi buyumlarning ishlatilishini va saqlanishini va uni iste'molchi ehtiyojlarini mos kelish darajasi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash va tahlil qilish;
- Iste'molchilarni ishlatilishdagi va ta'mirlashdagi kerakli hujjatlar bilan ta'minlash;
- Buyumlarni kafolatli ta'mirini bajarish;
- Iste'molchilarni ehtiyot qismlar, asboblar va ishlab chiqarilgan buyumlarga tegishli narsalar bilan ta'minlash.

Sifatni har taraflama o'z ichiga oluvchi, uning hamma tomonlarini ta'minlovchi hamda mahsulotning barcha hayotiy bosqichlarini qamrab oluvchi faoliyat sifat tizimlarini bildiradi. Sifatli ish marketing (bozor tahlili va savdo – sotiq ishlari) sohasidan boshlanib, mahsulotning ishlatilishidan hosil bo'ladigan chiqindilardan foydalanish bosqichi bilan yakunlanadi. Bu bosqichlarning yig'indisini sifat halqasi (petlya kachestva) deb atalib, uning ta'rifi esa yuqorida keltirilgan.

II. Labaratorya mashg`ulot mavzusi va tarkibi

1.	Fizikaviy kattaliklarning sifat va miqdoriy tavsiflari. Fizikaviy kattaliklarning birliklari. Xalqaro birliklar tizimi.	
2.	O'lchashlarning usullari va turlari.	
3	O'lhash vositalari va ularning turlari.	
4.	Xatoliklarning turlari, taqsimlanishi va ularning ehtimoliy baholanishi.	
5	Xatolikning ehtimoliy baholanishi.	
6	O'lchashlar noaniqligi va ularning tiplari.	
7.	O'lhash natijalarini qayta ishslash	

1-LABORATORIYA ISHI

Fizikaviy kattaliklarning sifat va miqdoriy tavsiflari. Fizikaviy kattaliklarning birliklari. Xalqaro birliklar tizimi.

Ishdan maqsad

Termometrdagi tipik zvenolarda boradigan qonuniyatlarni tushunib olish, strukturasini soddalashtirishni misollarda ko‘rish, o‘lchash asbobini xususiyatlarini mashinali eksperiment yordamida o‘rganish.

Asosiy qism

Suyuqlikli termometrlar texnologik jarayon davomida xaroratni nazorat qilib turish, termosignalizatsiya, xaroratni avtomatik rostlash tizimlarini, xavfli vaziyatlarni oldini olish tizimlarini tuzish uchun qo‘llaniladi.

Xaroratni o‘lchash. Xarorat – molekulalar xaotik harakatlarini o‘rtacha kinetik energiyasining o‘lchovi bo‘lib, jism yoki ob’ektlarning issiqlik xolatini ko‘rsatuvchi kattalik hisoblanadi. Jismlar molekulalarining kinetik energiyasi va shuningdek, xaroratni o‘zgarishi ularda hajm o‘zgarishiga va ularning bir holatdan ikkinchi (qattiq, suyuq va gaz) holatlariga o‘tishiga sabab bo‘ladi. SHu boisdan, jismlarning xaroratni o‘lchash uchun kerak bo‘ladigan o‘lchov birligi va o‘lchash shkalasini yasashda ularning issiqlik holatlarining o‘zgarish nuqtalarida mavjud bo‘ladigan xaroratlar mikdoridan foydalilaniladi. Agar xaroratni «gradus» bilan o‘lchansa, uning o‘lchov birligi quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$1 \text{ gradus} = (\theta'' - \theta')/n \quad (1)$$

bu erda: θ' – jismning boshlanjich chegara nuqtasidagi xarorati yoki «nolinch xarorati»; θ'' – shu jismning ikkinchi xolatga o‘tish nuktasidagi xarorati; n – butun son (shkala bo‘linmalari soni).

Hozirgi vaqtida ikki xil o‘lchov shkalalari mavjud: 1)Selsiy shkalasi, 2) Kelvin termodinamik shkalasi.

Selsiy shkalasida xaroratning o‘lchov birligini topish uchun suvning uch xolati – muzlash, qaynash va bug‘lanish nuktalari orasidagi xarorat mikdori 100 bo‘lakka bo‘linadi. Agar suvning muzlash nuqtasi $\theta' = 0$, qaynash nuqtasi $\theta'' = 100^\circ S$ va $n = 100$ deb qabul qilinsa, xaroratning Selsiy shkalasidagi o‘lchov birligi

$$(\theta'' - \theta')/n = (100 - 0)/100 = 1^\circ S \text{ bo‘ladi}$$

Amalda xaroratni o‘lchash uchun xalqaro amaliy shkalalar – selsiy va kelvinlar qo‘llaniladi. Bu shkalalar Selsiy shkalasi asosida tuzilgan, ular o‘lchov birligi $1^\circ S$, K belgilanishi esa T va θ .

Xalqaro amaliy shkala bo‘yicha xarorat kelvin bilan o‘lchansa, uning qiymati quyidagi formula bo‘yicha hisoblab topiladi:

$$T = \theta^\circ S + 273,15. \quad (2)$$

Ma’lumki, xarorat bilvosita usul bilan termometrik jismlar yordamida o‘lchanadi.

Xaroratni o‘lchash uchun termometrik jismlarning xarorat o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan fizik xususiyatlarining (hajm, bosim o‘zgarishi, termo EYUK xosil bo‘lishi va

hokazo) o‘zgarishidan foydalaniadi. Buning uchun termometrik jismlar, ya’ni termometr yasash uchun ishlataladigan jismlarning xususiyatlari har taraflama o‘rganiladi. Biror jismning xaroratini o‘lhash lozim bo‘lsa, termometrik modda (simobli termometr) xarorati o‘lchanishi kerak bo‘lgan jismga tekkaziladi yoki xaroratni o‘lchanishi lozim bo‘lgan muhitga kiritiladi. Natijada bu ikki jism orasida xarorat muvozanati vujudga keladi. Jismning (muvozanat holatdagi) xarorati xarorat o‘lhash asbobining ko‘rsatishiga muvofiq aniqlanadi.

Xalkaro birliklar sistemasida xaroratning o‘lchov birligi sifatida kelvin (K), ya’ni suvning muz, suv, bug‘ xolatida bo‘ladigan nuqtasi deb ataladigan termodinamik xarorati qabul qilingan. Bundan tashqari, Xalkaro birliklar sistemasida xaroratning Xalkaro amaliy shkalada – Selsiy shkalasida ($^{\circ}$ S) o‘lhashni ham tavsiya qilinadi. Bu shkala jismlarning o‘zgarmas holatlaridan oltitasining mavjudligiga asoslanadi:

- 1) kislороднинг qaynash nuqtasi – 182,97° S;
- 2) suvning bir vaqtda uch holatda (muz, suv, bug‘) bo‘lish nuqtasi – 0,01° S,
- 3) suvning qaynash nuqtasi +100° S;
- 4) oltingugurtning qaynash nuqtasi +444,6° S;
- 5) kumushning qotish nuqtasi +961,93° S;
- 6) oltinning qotish nuqtasi +1064,43° S.

Bu shartli nuqtalarga asoslanib etalon o‘lchov asboblarning shkalasi darajalanadi.

Xaroratni o‘lchaydigan asboblarning turlari va ularning o‘lhash chegaralari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Xaroratni o‘lchaydigan asboblар va ularning o‘lhash chegarалари

o‘lchov asboblari	$^{\circ}$ S
-------------------	--------------

Kengayish termometrlari:

Simobli texnik termometr	- 25 ... + 500
Organik suyuqlikli (spiritli) termometr	-200 ... + 65
Manometrik termometr (gazli termometr)	-60 ... + 700

Elektr qarshilik termometrlari:


Platinadan yasalgan termometr	-200 ... + 650
Misdan yasalgan termometr	-50 ... + 180

Termoparalar:

Platinarodiy – platina	-20 ... + 1300
Xromel – alyumel	-50 ... + 1000
Xromel – kopel	-50 ... + 600

Nurlanish termometrlari:

Optik termometr	800 ... + 6000
Fotoelektrik termometr	600 ... + 2000
Radiatsion termometr	+20 ... + 3000



Simobli temometrlar

1-rasm. Simobli texnik termometrlar

